



O'ZBEKISTONDA BOLALAR VA O'SMIRLAR ORASIDA QANDLI DIABET KASALLIGINI IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI

To'xtayeva D.M.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Toshkent

DOLZARBLIGI

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 2021-yil holatiga ko'ra 34558,9 ming kishini, shundan Toshkent shahri aholisi 2669,4 ming kishini, Toshkent viloyati aholisi esa – 2975,8 ming kishini tashkil etadi. Aholining turli yosh guruhlarida birlamchi va umumiy kasallanish dinamikasi har xil bo'lib, katta yoshdagi aholi orasida birlamchi va umumiy kasallanish o'rganilgan yillar davomida ko'rsatkich 1,3 va 1,1 martaga oshgan bo'lsa, bolalarda (0-14 yosh) va o'smirlar (15-18 yosh)da ikkala ko'rsatkich ham 1,2 baravarga kamaydi. 18 yoshgacha bo'lganlar o'rtasidagi ko'rsatkichlarning bunday pasayishi O'zbekistonda 1998-yildan buyon ona va bola salomatligini muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli dastur bilan bog'liqdir. O'zbekistonda bolalar va o'smirlarda 1-turdagi qandli diabetning epidemiologik ma'lumotlari 2000-yildan e'tiboran o'tkazib kelinadigan Milliy registr asosida tahlil qilinadi. 2020-yilda bolalar va o'smirlar orasida 1-turdagi qandli diabet bilan kasallanish va kasallik tarqalish darajasining ko'payishi qayd etilgan. Yevropa ma'lumotlariga nisbatan O'zbekistonda kasallanishning barqaror quyi raqamlari qayd etiladi, ya'ni O'zbekiston kasallanishning eng kichik xavfiga ega mamlakat hisoblanadi.

TADQIQOTNING MAQSADI

Bolalar va o'smirlar orasida QD kasalligi asoratining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar, shu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni o'rganish.

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqotda Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi QD 1-tur bilan kasallangan 119 nafar bolalar va o'smirlar ishtirok etishdi. Tadqiqotda retrospektiv, statistik, analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

QD kasalligini bolalar va o'smirlar o'rtasida kasallanish ko'rsatkichiga nazar tashlasak, viloyatlar kesimida va Toshkent shahrida va viloyat kesimida 2019-2022-yillarda qandli diabet bilan kasallangan bolalar va o'smirlar sonini yildan-yilga o'sib borayotganini ko'rishimiz mumkin. 2019-yilda O'zbekiston Respublikasida QD bilan kasallangan bolalar soni 3263 ta, 2020-yilda 3284 ta, 2021-yilda 3701 ta va 2022-yilda 4075 ta bola va o'smir yetgan. Bu ko'rsatkichlardan QD 1-turini bolalar va o'smirlar orasida yildan yilga o'sib borayotganiga yana bir bora guvoh bo'lamiz. Toshkent shahrida esa QD bilan

kasallangan bolalarni 2018-2022-yillardagi statisti ma'lumotlariga nazar tashlasak, 2018-yilda jami 375 nafar bola QD bilan kasallanish ro'yxatida turgan bo'lsa, shu yili 72 ta yangi QD bilan kasallanish holati, 2019-yilda 417 ta bolalar va o'smirlar ro'yxatga olingan bo'lsa yangi kasallanish holati 70 tani tashkil etadi. 2020-yilda esa QD bilan kasallanish holati 450 taga yetgan bo'lsa, shu yili 82 ta yangi kasallanish holati, 2021-yilda 533 nafar bola va o'smir QD bilan ro'yxatga olinganini va shu yili 118 nafar bolada yangi kasallanish xolati aniqlanganini ko'rishimiz mumkin. 2022-yilda esa jami 616 nafar bolalar va o'smirlar QD bilan ro'yxatda turgan bo'lsa, 76 nafar, bolalarda esa yangi kasallanish xolati qayd etilganini ko'rishimiz mumkin

XULOSA

Olingan natijalarga xulosa qiladigan bo'lsak, Toshkent shahri va Toshkent viloyati va butun respublika bo'ylab, bolalar va o'smirlar o'rtasida QD kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichlari, uning asoratlari ko'rsatkichlari oshgan. QD bilan kasallanish ayniqsa, 10-15 yoshdagi bolalar orasida yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, kasallik asoratiga nazar tashlasak, bolalar va o'smirlar orasida polineyropatiya kasalligi ko'payganligiga guvoh bo'lamiza. Kasallik asorati rivojlangan bolalar o'smirlarda hayot sifati sezilarli darajada pasayadi, bu esa o'z navbatida nogironlik darajasini oshishiga olib kelishi mumkin. Oila hamshiralarini bemorlar bilan ko'proq muloqot qilishi, ularga kasallik xavf omillarini tushuntirishi, bemorlarga to'g'ri ovqatlanishni, kun tartibiga rioya etishni targ'ibot etishi, kasallik keltirib chiqaradigan asoratlarni oldini olishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sabirdjanovich, Yusupov Anvar, et al. "Research of a hormone of stress-cortisol and concentration of blood sugar for an estimation efficiency anesthesia." Austrian Journal of Technical and Natural Sciences 3-4 (2015): 29-31.